



SHARQ AYOLLARI SIYMOSINI JONLANTIRGAN AYOL

Eshqobilova Feruza Ikromjon qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston she'riyatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan, shoir, jurnalist, tarjimon va jamoat arbobi sifatida tanilgan Zulfiya Isroilovaning boy ijodi, izlanishlari, matonati va jamiyatdagi o'rni yoritilgan. U yaratgan adabiy meros va tarjimalar nafaqat adabiyotni, balki o'zbek ayolining siymosini ham dunyoga tanitgan. Maqolada Zulfiyaning ijodi, shaxsiy hayoti, o'zbek adabiyotidagi o'rni hamda u orqali tasvirlangan Sharq ayoli obraziga ilmiy yondashuv asosida baho berilgan.

Kalit so'zlar: Zulfiya Isroilova, o'zbek adabiyoti, she'riyat, ayol obrazi, tarjima, adabiy meros.

KIRISH

Sharq ayollari deganda, ko'z oldimizga ulkan sabr, matonat, go'zallik va zakovatni mujassam etgan siymolar keladi. Bu ayollar ming yillik qadriyatlar, urf-odatlar, madaniyat va ma'naviyat bilan yo'g'rilgan. Ularning hayoti fidoyilik, tinimsiz mehnat va mehr-muhabbat bilan kechadi. Sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqining tarixida ayollar doimo muhim o'rin egallab kelgan. Ular nafaqat oila boshqaruvchisi, balki jamiyatni tarbiyalovchi, ilm va adabiyotga hissa qo'shuvchi ziyolilar sifatida tanilgan.

Sharq ayollari orasida buyuk siymolar yetishib chiqqan. Hazrati Uvaysiy, Nodira, Mohlaroyim va Zulfiyaxonim kabi adibalar o'z ijodi orqali nafaqat o'zbek adabiyotini boyitgan, balki ayollarning kuchi, irodasi va go'zalligini yuksak darajada tasvirlashgan. Zulfiyaxonim o'z she'rlarida ayol qalbidagi mehr, sadoqat va fidoyilikni ta'sirchan ifodalagan. Uning ijodi orqali butun dunyo Sharq ayolining go'zal qalb egasi ekaniga guvoh bo'ldi.

"O'zbekiston xalq shoiri, atoqli adiba va jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tug'ilgan. U bolaligidan adabiyotga mehr qo'ygan va ilk she'rlarini 1931-yildan boshlab nashr ettira boshlagan. "Men ish qizi" nomli birinchi she'ri bilan adabiyot maydoniga dadil kirib kelgan va butun umrini so'z san'atiga bag'ishlagan".¹

"Zulfiya yoshligidanoq adabiy faoliyatini boshlagan bo'lib, ko'plab she'rlari orqali o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotini yoritgan. 1932-yilda nashr etilgan ilk she'riy to'plami — "Hayot varaqalari"da inson qalbi, yoshlik, muhabbat va mehnatga e'tibor aks ettirilgan. 1935-yilda Ayollar pedagogik bilim yurtini tamomlagach, Til va adabiyot institutining aspiranturasiga o'qishga kirgan. Shu davrda shoir Hamid Olimjon bilan tanishib, keyinchalik turmush quradi. Uning vafotidan so'ng Zulfiya chuqur lirizmga boy, dardli she'rlar yaratdi".²



"Zulfiya she'riyatida ona tabiat, inson, ayol, muhabbat va ma'naviyat kabi mavzular ustuvor o'rin tutadi. "Bahor keldi seni so'roqlab", "Oydinda", "Yurak", "Falak" kabi she'rlari nafaqat badiiy jihatdan, balki ruhiy ta'sirchanlik bilan ham ajralib turadi".³ U o'z ijodida o'zbek ayolining sabr-toqatli, zukko va mehribon obrazini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

"Shoira tarjimon sifatida ham katta yutuqlarga erishgan. U Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Lesya Ukrainka, Vera Inber kabi mashhur adiblarning asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan".⁴ Bu tarjimalar o'zbek adabiyotining badiiy manzarasini yanada boyitgan.

Zulfiya Isroilovanning adabiy merosi xalqimiz tomonidan munosib e'tirof etilgan. Uning nomi bilan atalgan maktablar, bog'lar, adabiy mukofotlar mavjud. Har yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti iqtidorli qizlarga topshiriladi — bu esa shoiraaning izdoshlari tomonidan e'tirof etilayotganligini bildiradi.

Zulfiya o'zining betakror she'rlari, tarjimalari va ijtimoiy faoliyati orqali o'zbek ayolining adabiy siymosini shakllantirdi. U nafaqat o'z davrining ilg'or adibasiga, balki bugungi yoshlar uchun ham ibrat namunasi bo'ldi. Asarlari o'nlab tillarga tarjima qilingan bo'lib, uning izlanuvchanligi va adabiy salohiyatining yorqin ifodasidir. Zulfiya ijodi orqali o'zbek ayolining kuchli, sabrli va mehribon obrazi yuksak badiiylilik bilan namoyon etildi. Uning merosi esa yosh avlod uchun ilm, saboq va ilhom manbai bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya – biografiya. (2023). Sputnik O'zbekiston. URL: <https://oz.sputniknews.uz/20230227/zulfiya-biografiya-32472048.html> (murojaat sanasi: 28.04.2025)
2. Jo'raboyeva, Shohida. (2020). "O'zbek shoirasi Zulfiyaxonim hayoti va unutilmas ijodi." Tibbiy profilaktika fakulteti. URL: <https://mmp.tma.uz/2020/07/...> (murojaat sanasi: 30.04.2025)
3. Qodirov, A. (2012). O'zbek she'riyati taraqqiyoti. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
4. Karimov, I. (2001). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.

